



# SHO'FOKOR

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT UNIVERSITETI  
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



## MILLIY MUSTAQILLIK – YANGI O'zbekistonning MUSTAHKAM ASOSIDIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston  
Respublikasi davlat mustaqilligining  
o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimdag'i nutqi

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar! Xonimlar va janoblar! Avvalo, mana shu muazzam "Yangi O'zbekiston" bog'ida turib, siz, azizlarni, butun xalqimizni ulug' ayyom – Mustaqillik kuni bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Barchangizga o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimni, eng ezgu va oljanob tilaklarimni izhor etaman.

Hurmatli do'star! Bundan o'ttiz bir yil muqaddam jahon xaritasida "O'zbekiston Respublikasi" degan yangi, mustaqil davlat paydo bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligidagi mamlakatimizning milliy mustaqilligini dunyoga

e'lon qildik. Oradan yillar, asrlar o'tadi. Lekin milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz va insoniylar haq-huquqlarimizni tiklab bergan, barcha yutuq va marralarimizning zamini bo'lgan Mustaqillik kuni biz uchun, kelgusi avlodlarimiz uchun doimo eng ulug', eng aziz bayram bo'lib qoladi.

Qadrli yurtdoshlar! Oxirgi olti yil davomida biz Vatanimiz taraqqiyotining yangi bosqichida keng qamrovli islohotlarimizni boshlab, izchil davom ettirmoqdamiz. O'tgan davrda "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralarini xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil faoliyatimiz dasturiga aylandi. Vazir va hokimlar, deputat va senatorlar, rahbar va mutasaddilar,

umuman, barcha-barchamiz, buyuk shoirimiz Cho'lon aytaganidek, xalq ichiga kirib, xalqdan kuch olib, yangi yondashuv asosida xalqimizga xizmat qilmoqdamiz. Bir haqiqatni ishonch bilan aytishga barcha asoslarimiz bor: bugungi O'zbekiston – bu kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. Mamlakatimiz pandemiya va global inqirozning salbiy ta'sirlariga qaramasdan, erkin, obod va farovon hayot qurish yo'ldan dadil olg'a bormoqda. Hammamiz yaxshi tushunamizki, bugun biz intilayotgan Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish oson emas. Bunday ulug' vazifaning sharti va mezonlari ko'p. Ammo eng muhim va hal qiluvchi omil – bu demokratik islohotlar yo'lidir. SHu bois xalqimiz manfaatiga to'la javob beradigan bu yo'ldan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, faqat oldinga qarab boramiz.

Hurmatli do'star!

Biz bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini jadal amalga oshirmoqdamiz. Bizning maqsadimiz aniq va ravshan. Yangi O'zbekiston:

– har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan;

– odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan;

– hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolarini ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lgan;

Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi. Ushbu yuksak marralarga erishish uchun 2026 yilgacha Taraqqiyot strategiyasi doirasida keyingi ishlarmizni 5 ta asosiy vazifalar bo'yicha tashkil etamiz.

### Samarqand sammiti Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida yangi sahifa ochdi



2022 yil 16 sentabr kuni Samarqandda  
"Buyuk ipak yo'li" xalqaro turistik majmuasi Kongress markazida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi.

Bugungi kunda dunyodagi nufuzli xalqaro tuzilmaga aylangan SHanxay hamkorlik tashkiloti 2001 yil 15 iyunda SHanxay shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston imzolagan deklaratsiya asosida tashkil etilgan. O'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisidiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar, energetika, transport va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, o'zi qamragan mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash Tashkilotning asosiy maqsad va vazifalarini hisoblanadi.

O'zbekiston SHanxay hamkorlik tashkilotiga asos solgan davlatlardan biri sifatida uning faoliyatida muhim va faol rol o'yynamoqda. O'zbekistonning tashhabbuslari ShHTning xalqaro

nufuzini va salohiyatini yuksaltirishga, ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga hamisha xizmat qilib kelgan.

Mamlakatimiz shu paygacha ShHTga 2003-2004, 2009-2010 hamda 2015-2016 yillarda raislik qilgan. O'zbekistonning to'rtinchi – 2021-2022 yillardagi raisligi qizg'inligi, mazmundorligi va natijaga qaratilganligi bilan ahamiyatlari bo'ldi...

...O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan uchrashuvda Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosimjon Martor Toqayev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si TSzinbejin, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, SHanxay hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Chjan Min va ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori Ruslan Mirzayev ishtirot etdi.

(davomi 2-sahifada)

(davomi 3-sahifada)

Samarqand sammiti kun tartibiga muvofiq, davlat rahbarlari ShHT doirasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarini muhokama qildilar, mintaqada yuzaga kelayotgan siyosiy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Prezidentimiz ShHT kelajagi va mamlakatlarimiz rivojki ko`p jihatdan bahamijihat va samarali ishshagha bog`liq ekanini ta`kidladi. “Biz birlgilarda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta`minlash maqsadida, mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz tarraqiyoti va farovonligi yo`lda tashkilotni yangi marralarga olib chiqishga qodirmiz”, – deya ishonch bildirdi Shavkat Mirziyoyev...

...Azo davlatlar yetakchilari o`z chiqishlarida ShHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalariga, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik muammolariga to`xtalib o`tdilar. Samarqand sammiti alohida, tarixiy ahamiyatga ega ekan qayd etildi.

ShHT Davlat rahbarlari kengashi majlisi kuzatuvchi mamlakatlar, faxriy mehmonlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi.

Sammit bunday keng formatda – 14 ta mamlakat yetakchilari ishtirokida birinchi marta o`tmoxda.

O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o`tgan Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida Tashkilotga a`zo mamlakatlar va uning tuzilmalari yetakchilari bilan birga ShHT huzuridagi kuzatuvchi davlatlar rahbarlari va sammitning faxriy mehmonlarini – Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy, Mo`g`uliston Prezidenti Uxnaqiyin Xurelsux, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, shu jumladan, BMT Bosh kotibining o`rinbosari Rozmari DiKarbo qatnashdi.

Shavkat Mirziyoyev Sammit doirasida “Xitoy – Qirg`iziston – O`zbekiston” temir yo`li qurilishi to`g`risida uch tomonlama bitim imzolanganini tarixiy voqeа sifatida baholab, ishtirokchilarni strategik jihatdan yana bir muhim loyiha – “Termiz – Mozori-SHarif – Kobul – Peshovar” temir yo`li qurilishini ham qo`llab-quvvatlashga chaqirdi.

SHU va boshqa masalalarni muhokama qilish uchun O`zbekiston ShHTning Birinchi transport forumini o`tkazish va uning yakunida Qo`shma harakatlar rejasini ishlab chiqishga tayyorligi aytildi.

Davlatimiz rahbari ekologik tahdid u xatarlar ortib borayotganini ta`kidlab, ShHTning Iglim kengashini tuzishni taklif etdi. Ushbu mexanizm “yashil” taraqqiyot, cho`llanish va tuproq tanazzuliga qarshi kurashish, ekologik loyhilar, shu jumladan, Orolbo`yi uchun innovatsion yechimlar va moliyaviy mablag`lar jalb qilishga ko`maklashadi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlikka alohida e`tibor qaratildi. O`zbekiston Prezidenti bu boradagi ustuvor vazifalar qatorida mamlakatlarimiz huquqtartibot idoralar va maxsus xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish, xavfsizlikka tahdid va xatarlar oldini olish hamda ularga tezkorlikda javob qaytarish bo`yicha ShHT MATT faoliyatini samaradorligini oshirish zarurligini qayd etdi.

SHU bilan birga, yoshlarning ekstremistik tashkilotlarga jalb etilishiga yo`l qo`ymaslik, turli nosog`lom mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilish taklif etildi. Duniyoda radikalizmning o`sishi xavfli tendentsiyaga aylanayotgan hozirgi sharoitda bu ayniqsa umimidir.

Davlatimiz rahbari afg`on xalqi yaxshi qo`shinchilik yordamiga har qachongidan ham ko`proq muhtoj ekan, o`tmishdagidan xatolarni takrorlamaslik kerakligini ta`kidladi.

SHU munosabat bilan Termiz shahridagi

transport-logistika xabining zamonaviy infratuzilmasidan foydalangan holda Afg`onistonni gumanitar qo`llab-quvvatlash bo`yicha maxsus fond ta`sis etish taklif qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniy-gumanitar aloqalar an'anaviy ravishda hamkorligimizning mustahkam asosi ekanini ta`kidladi. Madaniyatlar va an'analar xilma-xilligini hurmat qilish millionlab odamlarga do`ston muloqot va o`zaro almalshuvning yangi imkoniyatlarini ochib beradi....



...ShHT Davlat rahbarlari kengashining Samarqand deklaratsiyasi tadbirning bosh yakuniy hujjati bo`ldi.

Unda mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta`minlash, transport aloqalarini mustahkamlash, shuningdek, madaniy muloqotni chuqurlashtirish bo`yicha qo`shma yondashuvlar belgilab berilgan.

Jami 44 ta hujjat – bitim, kontseptsiya, dasturlar va boshqa qarorlar qabul qilindi. Bu tashkilot tarixida rekord ko`rsatkichdir. Jumladan:

- ShHTga a`zo davlatlarning uzoq muddatlari yaxshi qo`shinchiligi, do`stligi va hamkorligi to`g`risidagi shartnoma qoidalari 2023-2027 yillarda amalga oshirish bo`yicha kompleks harakatlar rejasiga to`g`risida;

- ShHTga a`zo davlatlarning o`zaro bog`liqlikni rivojlanish va samarali transport yo`lklarini yaratish bo`yicha kontseptsiyasi to`g`risida;

- “ShHTning ezgu niyat elchisi” faxriy unvon to`g`risidagi nizom to`g`risida;

- ShHTga a`zo davlatlarning o`zaro hisobkitoblarida milliy valyutalar ulushini bosqichma-bosqich oshirish bo`yicha “yo`l xaritas” to`g`risida;

- Eronning ShHTga a`zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to`g`risidagi memorandum imzolanganiga to`g`risida;

- Belarus Respublikasini ShHT a`zoligiga qabul qilish jarayonini boshlash to`g`risida;

- Maldiv Respublikasi, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Myanma Ittifoqi Respublikasi, Quvayt Davlatiga ShHTning muloqot bo`yicha sherigi maqomini berish to`g`risida;

- Varanasi shahrin (Hindiston) 2022-2023 yillarda ShHTning turizm va madaniy poytaxti deb e`lon qilish to`g`risida;

- ShHT kotibiyati va Ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha BMT (YUNESKO) o`rtasida memorandumni imzolash to`g`risida;

- ShHT Bosh kotibining tashkilotning o`tgan yilgi faoliyatini hamda ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Kengashining 2021 yilgi faoliyatini to`g`risidagi hisobotlari haqida;

- ShHT Davlat rahbarlari kengashi qarorlarining amal qilishini bekor qilish to`g`risida;

- ShHT faoliyatini takomillashtirish to`g`risida qarorlar qabul qilindi.

SHuningdek, ShHT Davlat rahbarlari kengashining:

- iqlim o`zgarishiga nisbatan javob harakatlari to`g`risida;

- ishonchli, barqaror va diversifikasiyalashgan

yetazib berish zanjirlarini ta`minlash to`g`risida;

- global oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash to`g`risida;

- energetik xavfsizlikni ta`minlash to`g`risidagi bayonotlari qabul qilindi.

Bundan tashqari, tadbir doirasida quyidagi hujjatlar imzolandi:

- Eronning ShHTga a`zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to`g`risidagi memorandum;

- ShHTga a`zo davlatlar hukumatlari o`rtasida turizm sohasidagi hamkorlik to`g`risida bitim;

- ShHTga a`zo davlatlar o`rtasida xizmatlar savdosidagi sohasidagi hamkorlikning hadli asoslar;

- ShHT mamlakatlarining vakolati organlari o`rtasida o`simliklar karantini sohasidagi hamkorlik to`g`risida bitim;

- ShHT mamlakatlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi hamkorligi dasturi;

- ShHT mamlakatlarini infratuzilmaviy rivojlanish dasturi;

- ShHT mamlakatlarining ishbilarmon doiralari o`rtasidagi sanoat kooperatsiyasini rag`batlantirish dasturi;

- Raqamli savodxonlikni rivojlanish bo`yicha ShHT dasturi;

- ShHTga a`zo davlatlarning sun`iy intellektni rivojlanish bo`yicha hamkorligi dasturi;

- ShHTga a`zo davlatlarning tibbiyot tashkilotlari o`rtasida yuqumli kasalliklarni profilaktika qilish va davolash masalalarida hamkorlik bo`yicha “yo`l xaritas”;

- ShHTga a`zo davlatlar o`rtasida ustuvor yo`nalishlardagi ilmiy-teknik hamkorlik bo`yicha harakatlar rejasiga (2022-2025 yillarda);

- ShHTda mintaqalichidagi savdoni rivojlanish bo`yicha qo`shma harakatlar rejasiga;

- ShHT mamlakatlarining telemeditsina sohasidagi hamkorligi kontseptsiyasi;

- ShHT mamlakatlarining “aqlli” qishloq xo`jaligi va agroinnovatsiyalarni joriy etish sohasidagi hamkorligi kontseptsiyasi;

- ShHT va Arab davlatlari ligasi kotibiyatlari o`rtasida memorandum;

- ShHT kotibiyati va Ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha BMT (YUNESKO) o`rtasida o`zaro anglashuv to`g`risida memorandum;

- ShHT kotibiyati bilan Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya (ESKATO) o`rtasida o`zaro anglashuv to`g`risida memorandum va boshqa hujjatlar imzolandi.

SHU bilan O`zbekistonning ShHTga bu galgi raisligi yakunlandi va raislik ilk bor Hindiston Respublikasiga o`tdi.

Majlis yakunlangach, O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov hamda ShHT bosh kotibi Chjan Min ishtirokida brifing o`tkazildi va unda Samarqand sammiti natijalari, unda muhokama etilgan masalalar yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillariga axborot berildi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqandda o`tkazilgan sammiti bir qator jihatlari bilan tarixiy ahamiyatga ega bo`ldi. Bu avvalo, Davlat rahbarlari kengashining pandemiya boshlangandan buyon o`tgan uch yil ichida ilk bor barcha a`zo mamlakatlar yetakchilarining to`liq tarkibda yuzma-yuz muloqot qilgani, kuzatuvchi va mehnor mamlakatlar soni oshgani bilan bog`liq bo`ldi. SHuningdek, yig`ilishda ilk bor 40 dan ortiq hujjat ko`rib chiqildi. Tashkilotni kengaytirish, yangi a`zolar qabul qilish, muloqot bo`yicha sherik maqomini berish yuzasidan qarorlar imzolandi. Muhimi, ShHT makonida birdamlik, hamkorlik va barqarorlikni ta`minlashga qaratilgan muhim tashabbuslar bildirildi hamda ularni amalga oshirishga yakdillik bildirildi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,  
G`olib HASANOV,  
O`ZA maxsus muxbirlari**



## “Talabalikka bag’ishlov” tantanali tadbiri

2022-2023 o’quv yili boshlanishi munosabati bilan 26 sentabr kuni Samqand davlat tibbiyot universitetining yangi o’quv binosida “Talabalikka bag’ishlov” tantanali uchrashuvi o’tkazildi.

Tadbirda universitetining ma’muriyati, professor-o’qituvchilar, tyutorlar va talabalar qatnashdilar. Uchrashuvni Universitet

rektori professor Jasur Rizayev tabrik so’zi bilan ochib berdi. Universitet rektori va boshqa chiqish qilganlar qabul qilingan barcha birinchi kurs talabalarini tabriklab, ularni kelgusi o’qishi va ishlariiga omadlar tiladilar.

Yig’ilishdan so’ng barcha birinchi kurs talabalarini tyutorlari rahnamoligida

Universitetning o’quv binolari, ma’ruza zallari, o’quv auditoriyalari va laboratoriya xonalari, yangi binoda tashkil etilgan zamonaiviy axborot-resurs markazi va oliyoh tarixi muzeyi bilan tanishib chiqdilar. Talabalar uchun birinchi dars mashg’uloti odatdagidek “Mustaqillik darslari” sifatida o’tkazildi.

Birinchidan, ta’lim sohasida farzandlarimiz zamonaiviy bilim va ko’nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz. Buning uchun maktablarning o’quv dasturlari, o’qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko’rib chiqiladi. Ushbu tizim avval ilg’or xorijiy mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o’tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etiladi. Natijada Yangi O’zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaiviy ko’nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o’zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo’lib yetishadi. Buning uchun barcha hududlarimizda, ayniqsa, qishloq joylarda maktablar qurish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor beramiz.

Ustoz va murabbiylarning mashaqqatini mehnatini rag’batlantirish borasidagi ishlarmizni yangi bosqichga ko’taramiz. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limni har tomonlama rivojlantiramiz.

Ikkinchidan, sud tizimi mustaqil bo’lmas ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo’lmaydi. Sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohna qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi lozim. Yangi O’zbekistonda har qanday bahsli masalagaadolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Sudbyalar ishiga har qanday aralashuv keskin jazolanadi, ularning xavotirsiz ishlashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi. Qanchalik qiyin bo’lmasin, sud tizimidagi islohotlarimizni albatta davom ettiramiz.

Uchinchidan, dunyo tajribasidan ma’lumki, faqat tadbirkorlik rivojlangan davlatda – sifatlari ta’lim, malakali tibbiyot, farovon hayot hamda ertangi kunga ishonch bo’ladi. Umuman aytganda, biz qurayotgan Yangi O’zbekistonda biznesni rivojlantirish orqali qo’shimcha ish

o’rinlari yaratiladi, kambag’allik qisqaradi, aholi daromadlari ko’payadi. Buning uchun xususiy mulk va tadbirkorlikka xalaqit berayotgan barcha to’siqlar bartaraf etiladi. Davlat boshqaruvi isloh qilinib, iqtisodiyotda davlat ishtiroti keskin kamaytiriladi. Biz aholi va tadbirkorlarga soliq yukini yengillashtirish, soliq tizimini soddashtirish bo’yicha islohotlarni izchil davom ettiramiz. Bunda hech kimga alohida imtiyozlar berilmaydi, sog’lom raqobat muhiti uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

To’rtinchidan, sog’liqni saqlash tizimida aholiga yanada sifatlari va malakali tibbiy xizmatlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiramiz. Barcha hududlarda shoshilinch tibbiy yordam qamrovini oshirib, uni odamlarga yanada yaqinlashtiramiz. Maqsadimiz – xalqimiz sog’lom hayot kechirishi va o’rtacha umr ko’rish darajasini uzaytirishga erishish.

Beshinchidan, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi doimo diqqatimiz markazida bo’ladi. Sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi keskin ko’paytiriladi. SHu bilan birga, muammoli hududlarga toza ichimlik suvini yetkazish va sifatini yaxshilash bo’yicha alohida dasturlarni amalga oshiramiz. Muhtaram do’star!

Albatta, bunday keng ko’lamlı vazifalarni amalga oshirishda oldimizda turli qiyinchilik va muammolar paydo bo’lishi tabiiy hol. Lekin o’z tarixida qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirgan mard va matonatlari xalqimiz har qanday qiyinchilikni yengib o’tishga qodir. Men bunga qat’iy ishonaman. Asosiy mualifli va ijodkori xalqimiz bo’lgan – yangilanayotgan Konstitutsiyamiz bu yo’lda mustahkam huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Asosiy qonunimizni shoshilmasdan, chuqr o’lab, xalqimiz bilan maslahat qilib, faqat umumxalq referendumi asosida qabul

qilamiz.

Ishonchim komil, Yangi Konstitutsiyamiz chinakam xalq Qomusi, chinakam xalq Konstitutsiyasi bo’ladi.

Hurmatli tadbir ishtirotchilari!

Jahondagi bugungi murakkab vaziyat bidan ishning ko’zini bilib, kechayu kunduz fidoyi bo’lib, samarali mehnat qilishni talab etmoqda. SHu bois Qurolli Kuchlarimizning quadrati va salohiyatini yuksaltirish ham ustuvor vazifamiz bo’lib qoladi. Askar va ofitserlarimizning jangovar tayyorgarligi, harbiy mahorati, vatanparvarlik fazilatlarini oshirishga yanada ko’proq ahamiyat beramiz. Mana shu qutlug’ kunda Vatan himoyasida doimo sergak va hushyor turgan mard va jasur o’g’lonlarimizni chin dildan qutlab, ularga kuch-g’ayrat va omadlar tilaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bugun biz o’z oldimizga ulug’ vor va yuksak maqsadlarni qo’ymoqdamiz. Ana shunday ulkan marralarga yetish yo’lida ko’p millatli el-yurtimiz yanada birlashib, yagona ahil oila, yagona xalq bo’lib, astoydil harakat qilmoqda.

Bu – biz erishayotgan barcha yutuqlarimizning mustahkam garovi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo’lamiz. Fursatdan foydalaniib, islohotlarimizni faol qo’llab-quvvatlab, ularni amalga oshirishda doimo fidoyilik ko’rsatib kelayotgan mehnatkash, olijanob va bag’rikeng xalqimizga chin dildan ta’zim qilaman. Siz, aziz yurdoshlarimni O’zbekiston mustaqilligining o’ttiz bir yillik bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalarigizga baxtu saodat, fayzu baraka tilayman.

Ezgu orzu-niyatlarimiz amalga oshsin!

Yaratganning o’zi barchamizni panohida asrasin!

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon, Mustaqilligimiz abadiy bo’lsin!



## "O'ZBEKISTON BO'YLAB SAYOHAT QIL!"

Samarqand davlat tibbiyot universitetining 350 nafar talaba yoshlari va professor — o'qituvchilaridan iborat jamoasi yurtimizning yana bir qadimiy ko'hna kenti — Xorazm viloyati tomon yo'l olishdi.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" aksiyasi doirasida tashkil etilgan mazkur tashrif 3 kun davom etadi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari Xivada mehmonlar dastlab ko'p yillik tarixni o'z ichiga olgan Ichan Qal'anizi ziyorat qilishdan boshlashdi.

Ichan Qal'a — O'rta Osiyodagi yirik va noyob



## YANGI O'QUV YILIDA MA'NAVIY-TARBIYAVIY ISHLAR BO'YICHA UCHRASHUV

Joriy yilning 19-sentabr kuni universitetning yangi o'quv binosida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Eldor Tangirov raisligida barcha fakultetlarning yoshlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rbinbosarları va tyuterlari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda yangi 2022-2023 o'quv yilida talabalarni turar joy bilan ta'minlash, vaqtlnarni mazmunli o'tkizishni rejalashtirish, bиринчи kurs talabalari orasida turli yo'nalishlar bo'yicha iqtidori yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar muhokama qilindi, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, uchrashuv jarayonida Universitetni "Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi" rahbari Lazizbek Shukurov tomonidan interactive.sammu.uz sayti orqali talabalardan joyiga ariza yuborish borasida keng tushunchalar berildi.

Yig'ilishda o'quv yilida tarbiyaviy va ma'rifiy ishlarga doir yana bir qator masalalar muhokama etildi.

### "Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'rganishda motivatsiyani shakllantirish" xalqaro konferensiysi

2022 yil 22-sentabr kuni universitetda "Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarni o'rganishda motivatsiyani shakllantirish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro anjumanda Rossiya Federatsiyasini Kursk davlat tibbiyot universiteti, Saratov davlat tibbiyot universiteti, Priviljskiy tadqiqot tibbiyot universiteti, I.I.Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot akademiyasi, I.N.Ulyanov nomidagi Chuvash davlat tibbiyot universiteti, Smolensk davlat tibbiyot universiteti, Tyumen davlat tibbiyot universiteti, Tojikiston Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti va respublikamizning bir qator boshqa oliy o'quv yurtlarini yetakchi pedagog va tilshunosolimlari ishtiroy etdilar.

Xalqaro anjumanning ochilish marosimida universitet rektori Jasur Rizayev, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Ilhom To'xtasinov, "Ipak yo'l" xalqaro turizm universiteti bиринчи prorektori Juliboy Eltazarov, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha

me'moriy yodgorlik bo'lib, 1990-yilda majmua Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari, tyutorlari va professor-o'qituvchilari Xorazm viloyatiga sayohat doirasida Urganch shahridagi o'z yurti uchun jonini fido qilgan taniqli sarkarda Jaloliddin Manguberdi monumentini ziyorat qildilar.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari, tyutorlari va professor-o'qituvchilari Xorazm viloyatiga sayohat doirasida Xiva shahridagi Nurillaboy saroyida bo'ldilar



prorektori Gulandom Boqiyeva tabrik so'zlarini yo'llab universitet tomonidan o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya respublikada xorijiy tillarni o'rganishning dolzarbligi nuqtai nazaridan muhimligini va bu borada ilg'or xalqaro tajribadan foydalanan zaruriyatini ta'kidlab o'tdilar.

## UNIVERSITET 1977 YIL BITIRUVCHILARINING UCHRASHUVI

2022 yilning 24-sentabrida Samarqand davlat tibbiyot universitetida 1977-yil pediatriya va davolash fakultetlarini bitiruvchilarini 45-yillik uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ko'p yillardan beri o'tkazilayotgan ushbu uchrashuv tadbiри universitet uchun o'ziga xos bir bayram, yubiley darajasiga ko'tarilgan. Erta tongdan universitet bosh binosida mehmonlarni kutib olish jarayoni hamda faollar zalida uchrashuvning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Mehmonlar Universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, yangi o'quv binolari, laboratoriya hamda ma'reza zallari bilan yaqindan tanishib, o'quv jarayonlari haqida atroficha malumotga ega bo'dilar.

Rektor, prof. J.Rizayev rahbarligida universitetda amalga oshirilgan keng ko'lamlı ishlarni ijobji baholab, o'zlarining samimiy tabriklarini yo'llagan holda jonajon oliygohlariga yangi zaflarlar va omadlar tiladilar.

Yalpi majlisdan so'ng xalqaro ilmiy forumning asosiy ishi "Tibbiyot universitetida chet tili: o'qitishning optimal modellar", "Rus va o'zbek tillarini o'qitishga innovatsion yondashuv va tillarni o'qitish strategiyasini takomillashtirish", "Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini kasbiyo yo'naltirilgan o'qitish nazariyasi va amaliyoti" kabi sho'balarida davom ettilib, respublika va xorijiy 14 ta oliy o'quv yurtlari vakkilaringa pedagogika va tilshunoslik yo'nalishlari bo'yicha 40 dan ortiq ma'ruzalarini tinglandi. Konferensiya boshlanishidan avval forum ishtiroychilarining 127 ta ma'ruzasini o'z ichiga olgan ilmiy maqolalar to'plami nashr etildi.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, rus tilini chet tili sifatida o'qitishning yangi usullari, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tili va tibbiyot terminologiyasi, chet tillarini o'rganishda motivatsiyani shakllantirish, shuningdek, umumiy tilshunoslik, klassik filologik an'ana va uni o'rganish muammolariga yondashuvlar kabi dolzarb mavzularga doir chiqishlar ishtiroychilarining katta qiziqishlarini uyg'otdi. Ma'ruzalar qizg'in muhokama va fikr almashuvini bilan kechdi.

Universitet tomonidan o'tkazilgan "Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'rganishda motivatsiyani shakllantirish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tibbiyot kadrlarini tayyorlash sifatini

oshirish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, oliy o'quv yurtlarimizni xorijiy mamlakatlarning universitetlari va ilmiy-amaliy markazlari bilan xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlashga bejiz xizmat qiladi.

5-sentabr kuni, O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan Samarqand davlat tibbiyot universiteti yangi o'quv binosida barcha sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy axborot-resurs markazi hamda oliygoh tarixi muzeyi galereyasining tantanali ochilish marosimlari bo'lib o'tdi. Tantanali tadbirdarda Samarqand shahar nuroniyalari jamoatchilligi, universitet faxriylari, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlar vakillari ishtirot etdilar.



Axborot resurs markazidan tahsil olayotgan talaba-yoshlar nafaqat elektron adabiyotlardan foydalinish, balki o'zлari uchun kerak bo'lgan barcha kitoblarni olish imkoniyatlariiga ega bo'lisdilar.

Shuningdek, qariyb 95 yillik tarixga ega bo'lgan Samarqand davlat tibbiyot universitetida zamonaviy muzey ish boshladi. Universitetda tahsil olayotgan yoshlarga uning uzoq yillarda davomidagi shonli tarixi, yetuk tibbiyot kadrlarni tayyorlash borasidagi faoliyatni, bugungi kunidan darak beruvchi zamonaviy galereyasining ochilish marosimi ham o'tkazildi. Mazkur galereyada 1930-yildan 2022-yilga qadar xronologik davrlarni o'z ichiga olgan foto jamlanmalari va har biriga ta'riflar keltirilgan.

Tantanali ochilishida universitet rektori Jasur Rizayev yangi zamonaviy binoni yaratilishi va universitetni ta'lim nufuzini oshirishiga salmoqli hissa qo'shgan va 16 yil oliygohta rahbarlik qilgan professor Azamat Shamsiyevga, tashrif buyurgan mehmonlarga minnatdorchilik bildirdi. O'z o'mida so'z olgan ishtirokchilar Samarqand davlat tibbiyot universiteti kundan-kunga o'sib borayotgan xalqaro nufuzini aytib uning keyingi faoliyatiga omadlar tiladilar.

### NEYROXIRURGIYA BO'YICHA XALQARO SEMINAR VA MASTER- KLASS



Joriy yilning 9-sentabr kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Miya poyasining kavernozi angiomasini davolashning zamonaviy mikroneuroxirurgik usullari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy seminar va mahorat darsi bo'lib o'tdi. Seminarida neyroxiurglar, nevropatologlar, psixiatrlar, pediatrlar, klinik ordinatorlar va talabalardan iborat 40 dan ortiq mutaxassislar ishtirot etdilar.

Xalqaro tadbirda professor Eka Vaxjoepronono, Jakarta universiteti (Indoneziya) yetakchi mutaxassisini Pelita Xarapan bosh miya poyasining turli lokalizatsiyasi bo'lgan kavernozi angiomalari bilan og'igan ko'plab bemorlarni operatsiya qilish bo'yicha ilmiy ma'ruzalar qildi. Zamonaviy neyroxiurgyaning eng dolzarb muammolaridan hisoblangan kavernomalarni zamonaviy mikrojarrohlik yo'li bilan davolash bo'yicha ma'ruzalar tinglandi. Jumladan, taqqim etilgan "Miya poyasining turli lokalizatsiyasidagi kavernomalarda klinik holatlar va neyroxiurgik yondashuvni tanlash" mavzusidagi ma'ruza seminar ishtirokchilari uchun juda foydali bo'ldi. Ma'ruzachi tomonidan berilgan barcha savollarga klinik tajriba va turli klinik holatlar asosida batafsil javoblar qaytarildi.

Universitet Neyroxiurgiya kafedrasi professori A.M. Mamadaliyev professor Ek va uning xodimlariga Samarqandga kelib, tajriba almashgani uchun minnatdorchilik bildirdi. Mehmonlar bilan esdalik sovg'alari bilan almashildi va suratga tushildi.

Professor Eka Vaxjoepronono samarqandlik yosh neyroxiurglarning qiziqishini alohida qayd etib, universitetda kadrlarni tayyorlash va



### 2 SENTABR — BIRINCHI PREZIDENT XOTIRASI KUNI

Samarqand shahrida 2 sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga bag'ishlangan tadbirdilar o'tkazildi.

Samarqand viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi viloyat faollari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari Hazrati Xizr majmuasidagi Islom Karimov qabrini ziyorat qildilar, Qur'on tilovat qilindi. Islom Karimovning davlatimiz oldidagi buyuk xizmatlari, Samarqandda amalga oshirgan bonyodkorlik ishlari yodga olindi.

Registon maydoni yaqinida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti xotirasiga o'matilgan Islom Karimov haykali poyiga gullar qo'yildi, hurmat bajo keltirildi.

Xotira tadbirdarida Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'quvchilari faol ishtirot etdilar.



### URGUT UMUMTA'LIM MAKTABIDA UCHRASHUV

Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari yosh avlodni bebaho ma'nnaviy merosimiz bilan tanishitirish, zamonaviy ilmu-fan yutuqlaridan xabardor qilish maqsadida umumta'lim maktab o'quvchilari uchun muntazam ravishda turli ma'rifiy uchrashuvlarini o'tkazib kelinmoqdalar. Shu kabi ma'rifiy uchrashuv Samarqand viloyati Urgut tumani 7-son umumta'lim maktabi o'quvchilari uchun o'tkazildi. Bundan tashqari uchrashuvda mahalla faollari, yoshlar yetakchilari, maktab o'qituvchilari ham faol ishtirot etdilar.

Tadbirming ochilishida SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi mudiri, t.f.d., dos. Dilafroz Xolmurodova va patologik fiziologiya kafedrasi mudiri, t.f.d., dos. Gulnoza Samiyeva o'quvchilarni yangi o'quv yili bilan tabriklab mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlar borasida to'xtalib, ulami doimo ilm olishda astoyid mehnat qilib, o'z ustilardira ishlashishi, Vatanimiz ravnaci yo'lida xizmat qilgan Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek boborimizning tarixi va faoliyatini mukammal o'rganishlarini ta'kidlab o'tdilar. Universitetni farmatsiya fakultetini talabasi Asliddin Akbarov tomonidan "Tabobat va tibbiyot otasi Ibn Sino izdoshlari" mavzusida "Tib qonunlari" asarining taqdimotini o'tkazdi. Unda jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarimizdan bo'lgan qomusiy va ensiklopedist olim, tabobat ilmini sultonni Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijod yo'li, shoh asarlardan hisoblangan "Tib qonunlari" da keltirilgan kasalliklar, tabobat va dorishunoslik, ilmlari to'g'risida mufassal bayon qilindi.

Taqdimot maktab ma'muriyati va o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi, savol-javob va muhokamalarga boy bo'ldi hamda erkin muloqot tarzida yakunlandi.

Tadbir so'ngida 25 nafar faol o'quvchilar kitob to'plamlari bilan taqdirlандilar.

## XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ILMIY-AMALIY SEMINARI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti yangi binosida oliygohning olima-ixtirochi ayollarini va yosh tadqiqotchilar ishtirokida "Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faoelligini oshirish, gender tenglik masalalari va gender madaniyati" mavzusida ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi.

Seminarda Samarqand viloyat hokim o'rinnbosari — Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Zebiniso Raxmonova, "Olma ayollar" uyushmasi viloyat bo'limi raisi o'rinnbosari Sitora Sadikova, Samarqand shahar IIB xodimi, podpolkovnik Dildora Xatamova, SamDTU ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Shuxrat

Ziyadullayev, o'quv ishlari bo'yicha prorektor Nargiza Yarmuhamedova, xotin-qizlar maslahat kengashini raisi Gavhar Xudoyberdiyevlar ma'ruzalar bilan chiqishlar qildilar. Seminar qizg'in davom etib, fikr-mulohazalarga boy bo'lib, barcha ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash" maqsadida o'tkazilayotgan "Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli" haftaligida o'z ishlari va taqdimotlari bilan faol ishtirok etgan Universitetni bir guruh olima-ayollariga sertifikatlar topshirildi.



## SAMDTU TALABALARI "SAZAGAN" HARBIY DALA-O'QUV POLIGONIDA BO'LDILAR



Yozgi ta'til davomida talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda ular o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish va milliy armiyamizning kuch-qudrati va salohiyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Samarqand davlat tibbiyot universitetini bir guruh talabalarini, o'qituvchilari va tyutorlari Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Sazagan" harbiy dala-o'quv poligoniga tashrifi amalga oshirildi.

Mazkur poligonda universitet vakillari yaqin vaqtarda bo'lib o'tadigan "ArMI-2022" Xalqaro armiya o'yinlarini "Xavfsiz muhit" yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik jarayonini ko'zdan kechirdilar. Talabalar dala mashg'uloti jarayonlari, harbiy-dala tibbiyoti amaliyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

"Sazagan" harbiy dala-o'quv poligoniga amalga oshirilgan tashriftalabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish barobarida ularda Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat hissini yanada oshirishga xizmat qilishi aniq.

### SOG'LOM TURMUSH TARZINING – BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o'z xalqining, yoshlaringin jismoniy va ma'naviy kamolotini bilan o'lchanadi. Hozirda davlatlar o'rtasidagi o'zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo'nalishda sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya'ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kash etmoqda. Ilmiy ta'bır bilan aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakkllantirish XXI asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yoshlari uchun sog'лом turmush tarzi kontseptsiyasining hayotga tadbiq etilishi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat kiladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish borasida mustaqillik yillarida davlat tomonidan Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasasi qarorlari, davlat dasturlari va konunlar tizmi ishlab chiqiladi. Sog'лом turmush tarzini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga inson salomatligi tibbiy jihatdan asrash bilan birga inson salomatligiga ta'sir etuvchi zaharli oqibatlardan inson ruhiyatini oldidan himoyalash nuqtai-nazaridan ham psixologik, mehnat, ham dam olish me'yorlarini to'g'ri taqsimlay bilish, kundalik hayotda insonlarni sog'лом turmush tarziga o'rgatish, ratsional ovqatlanish mezonlarini targ'ib etish, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlat dasturlarining amaliyligiga erishish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish kabi o'nlab (davomi 7-sahifada)



Samarqand davlat tibbiyot universitetining binosida COVID-19 pandemiysi davrida xalqimiz salomatligi yo'lida jonini fido qilgan barcha tibbiyot xodimlariga bag'ishlangan memorial majmuuning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri Behzod Musayev o'zining kirish so'zi bilan ochib berib, COVID-19 koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda tibbiyot xodimlari mehnati va ko'satgan qahramonlklari, xalqimiz, ota-onalarimiz, farzandlarimiz salomatligi yo'lida tun-u kun qilayotgan mehnati barcha uchun jasorat namunasi bo'lganligini ta'kidladi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev o'z so'zida "Oq xalatlari qahramonlar" barelyefining

tibbiyot xodimlari jasoratining belgisi bo'lib qolishiga ishonch bildirdi. Shuningdek, Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi vakillari, viloyat va shahar sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari, Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar.

Xotira barelyefining ochilish marosimidan so'ng mehmonlar Samarqand davlat tibbiyot universitetining yangi binosidagi fundamental tibbiyot kafedralarining moddiy-teknik ta'minoti bilan tanishib, universitetida o'quv jarayonini olib borishini va Universitet talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni yuqori baholadilar.

dolzarb tamoyillar va yo`nalishlar kiradi.

Demak, sog'lom turmush tarzi eng avvalo inson ichki madaniyati bilan bog'lik hodisa bo'lib uni shakllantirish davlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'ziga hos mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Ayol sog'lom turmush tarzi esa, faqat uning o'z hayoti bilan aloqador unsur bo`lmasdan, balki jamiyat hayoti, davlat ravnaki, uning kelgusi fuqarolar zahirasi, bilan alokador bo'lgan umuminsoniy qadriyatlardan hisoblanadi. O'zbekistonda xotin-kizlarni davlat va jamiyattdagi faoligini oshirish, talaba qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash bo'yicha davlat siyosati kontseptsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib ana shu xujjalarning bosh mezonlaridan birini ham kizlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalari tashkil qiladi. O'zbekistondagi mavjud oilalardagi farzandlarning yarmini qizlar tashkil qiladi.

Muhimi shundaki, davlatimiz rahbari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o'smirlarni, balki butun xalqni ommaviy sport harakatiga jalb qila oladigan o'ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish ishlarning uzviy va ajralmas qismi deb biladi.

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar berayotgani nafaqat o'zimizning, balki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham tan olinib, e'tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta o'ylab, uzoqni

ko'zlab amalga oshirilganini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday olijanob ishlar o'tish davrining nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlangani bilan yanada ahamiyatlidir.

Bugungi kunda poytaxtimizda, viloyat va tuman markazlarida sportning, ayniqsa, yoshlar orasida ommaviyashib borishini



ta'minlovchi birlamchi omil-munosib shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta e'tibor berilayotganining yana bir asosiy sababi nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol avlodni voyaga etkazish zarurati bilan izohlanadi. Chunki sport xalqning, millatning g'ururini yuksaltiradi, ma'naviy kuch-qudrat baxsh etadi, qolaversa, butun jamiyatni ana shu g'urur tuyg'usi orqali birlashtiradi.

**Ilhom Normaxmatov  
SamDTU“Fuqaro mudofaasi va jismoniy tarbiya” kafedra katta o'qituvchisi**

## SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI TAYANCH DOKTORANTURA (PHD) VA DOKTORANTURA (DSC)GA HUJJAT QABUL QILISHNI E'LON QILADI.

Hujjatlar pdf formatda tuziladi va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni (<http://phd.mininnovation.uz>) muvofiqlashtirish bo'yicha yagona elektron tizimdaroyxatdan o'tgandan so'ng 2022 yil 15 oktyabrgacha qabul qilinadi.

Kirish imtihonlari va suhbatlarning asosiy qismi 2022 yil 1 noyabrdan 25 noyabrgacha o'tkaziladi.

Doktoranturaga (PhD) talabgorlar quyidagi hujjatlarni qabul komissiyasiga taqdim etadilar:

- Ariza;
- Obyektivka;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlaydigan ariza beruvchilar uchun);
- magistr yoki klinik rezident diplomining nusxasi ;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari (kamida 1 maqola va 2 tezis).
- falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun individual ish rejasи.

[phd.mininnovation.uz](http://phd.mininnovation.uz) veb-saytida ro'yxatdan o'tish

Doktoranturaga (DSc) kirishni istaganlar quyidagi hujjatlarni qabul komissiyasiga taqdim etadilar:

- Ariza;
- Obyektivka;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlaydigan ariza beruvchilar uchun);
- falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari (kamida 3 maqola va 2 tezis).

-Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun individual doktorlik dissertatsiyasi rejasи.

[phd.mininnovation.uz](http://phd.mininnovation.uz) veb-saytida ro'yxatdan o'tish

Tayanch doktoranturaga talabgorlar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan chet tili) bo'yicha kirish imtihonlarini topshiradilar.



## OCHIQ MA'RUDA E'LONLARI

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi ochiq ma'ruda e'loni*

**Mavzu:** Bronxoobstruktiv sindrom diagnostika va differensial diagnostikasi. shoshilinch yordam va uash taktikasi.

**Ma'ruzachi:** PhD, dots. Dilorom Ishankulova

**Manzil:** Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruda zali.

**Taklif qilinganlar:** Pediatriya fakulteti VI kurs talabalarasi, Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasi xodimlari, Ichki kasalliklar kafedralari xodimlari, klinik ordinatorlar va magistrler qiziquvchilar!

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti mobil ilovasi ishga tushirildi.*

*SamDTU professor o'qituvchilar, talabalari, abituriyentlar va ularning ota-onalariga qulaylik yaratish maqsadida "Android" hamda "iOS" smartfonlariga mo'ljallangan "SamDTU Rasmiy Mobile" ilovasi ishga tushirilgan.*

*«SamDTU Rasmiy Mobile» ilovasi orqali universitetning barcha (sammu.uz, mt.sammu.uz, hemis.sammu.uz, student.sammu.uz) xizmatlaridan mobil ilovadan chiqmasdan turib foydalanish imkoniyati mavjud.*

*Ilovani quyidagi play.google.com (Android) hamda apple.com (iOS) manzilidan yuklab olishingiz mumkin.*



## SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

### 1-son davolash fakulteti

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

### Pediatriya fakulteti

Bolalar kasalliklar propedevtikasi kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rinn;

2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rinn;

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rinn;

Bolalar kasalliklar propedevtikasi kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rinn;

Bolalar kasalliklar propedevtikasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, assistant lavozimiga - 2 o'rinn;

Yuqumli kasalliklar kafedrasi, assistant lavozimiga - 2 o'rinn.

### Tibbiy pedagogika va oliy hamshiralik ishi fakulteti

3-son ichki kasalliklar kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rinn;

Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rinn;

Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Pedagogika-psixologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

### Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti

Gistologiya, embriologiya va tsitologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Gistologiya, embriologiya va tsitologiya kafedrasi, stayer-assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi, stayer-assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

### Stomatologiya fakulteti

Og'iz bo'shlig'i jarrohligi va dental implantologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Bolalar stomatologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Yuz-jag' xirurgiyasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

### Diplomdan keyingi ta'lrim fakulteti

Travmatologiya va ortopediya kursi, dotsent lavozimiga - 1 o'rinn;

Terapiya, kardiologiya va funktsional diagnostika kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Nevrologiya va neyroxiurgiya kafedrasi, stayer-assistant lavozimiga - 2 o'rinn;

Oftalmologiya kursi, stayer-assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

SamDTU ilmiy kotibi

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovdan fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovdan fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi yoki Assistant o'qituvchi lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjalarni e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi

**Manzil:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

### "ENG YAXSHI KITOBXON TALABA"

#### KO'RIK TANLOVI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi OTMlar o'tasida "Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovi start berdi.

"Eng yaxshi kitobxon talaba" ko'rik tanlovi uchta shartdan iborat bo'lib:

Birinchi shart: O'zbek adabiyotining taniqli yozuvchi va shoirlarining hayoti va ijodi, ularning badiiy-publististik asarlari bo'yicha 50 ta savoldan iborat test sinovlari;

Ikkinci shart: "Men yoqtirgan asar" mavzusida o'zi sevib o'qigan asar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar – annotatsiya.

Uchinchi shart: "Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish" sharti: bunda, ishtirokchi tomonidan kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ'ib etish jarayoni amalga oshiriladi.

Tanlovida ishtirok etish uchun o'zingiz tahsil olayotgan fakultetning Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinoslariga murojaat qilishingiz mumkin!!! sh juda muhim ahamiyatga ega. Shifokorlar birinchi uch oylikda qon ketish sabablarini turli tahlil va tekshiruvlar natijasida aniqlashlari mumkin. Ular homiladorlikda qon ketish sababini aniqlaganlardan so'ng davolash va buni boshqarish yo'llarini ishlab chiqishadi.

Tahririyat raisi:  
**J.A. Rizayev**

Bosh muharrir:  
**E.S. TANGIROV**

Tahrir hay'ati:  
G.U. LUTFULLAEV,  
S.A. KARABAEV,  
A.A. AXMEDOV,  
J.F. KADIROV,  
B. E. TO'XTAROV,  
F. DAMINOV.

## SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

**S. Halimov**

Operator va sahifalovchi:

**Sh.Zamonov**

Fotomuxbir:

**O. AXMEDOV**

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

**MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi